

ARAB TILSHUNOSLIGI

Andijon davlat chet tillari instituti ingliz tili
filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti sharq tillari (arab tili)
yo'nalish 102-guruh i talabasi

Mavlonova Muzayyana Zuxriddin qizi

Ilmiy maslahatchi: **Kobulova U.S.**

Annotatsiya: Hozirgi kunda yurtimizda arab tilshunosligiga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Sababi, arab yozuvi va tilini o'rganish, tarixiy manbalar bilan tanishish hamda ulardan ilmiy va amaliy maqsadlarda foydalanish imkonini beradi. Shu bois arab tilini o'rganish nafaqat tarixiy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki zamonaviy ilmiy izlanishlar va xalqaro aloqalarda ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Kalit so'zlar: *geneologik, klassik, kommunikatsiya, somiy, folklor.*

Annotation: Nowadays, interest in Arabic linguistics is increasing day by day in our country. The reason is that studying the Arabic script and language provides great opportunities for getting acquainted with historical sources and using them for scientific and practical purposes. Therefore, learning Arabic not only deepens historical knowledge but also creates broad opportunities in modern scientific research and international relations.

Keywords: *genealogical, classical, communication, Semitic, folklore.*

Аннотация: В настоящее время интерес к арабской лингвистике в нашей стране растёт с каждым днём. Это обусловлено тем, что она предоставляет широкие возможности для изучения арабской письменности и языка, знакомства с историческими источниками и их использования в научных и практических целях. Таким образом, изучение арабского языка не только углубляет исторические знания, но и открывает широкие возможности для современных научных исследований и международных отношений.

Ключевые слова: *генеалогия, классика, коммуникация, семитские, фольклор.*

Arab tili BMT huzuridagi dunyoning oltita yetakchi tillaridan biri hisoblanadi. U somiy tillar oilasining janubiy shoxobchasiga mansub bo‘lib, o‘z geneologik taraqqiyotida uch bosqichni bosib o‘tgan: Qadimgi adabiy arab tili, Klassik adabiy arab tili, Zamonaviy adabiy arab tili¹.

Qadimgi adabiy arab tili. Qadimgi arab tili asosan Islomdan oldingi davrda (miloddan avvalgi va milodiy birinchi asrlar) shakllangan. Bu til Arabiston yarimorolining turli qabilalari shevalari asosida rivoj topgan. Asosiy manbalar — og‘zaki folklor, qabilaviy she‘rlar va rivoyatlar bo‘lib, yozma yodgorliklar kam uchraydi. Yana ba’zi manbalarda ushbu davr tili Islomdan avvalgi arab jamiyatining madaniy, ijtimoiy va tarixiy holatini aks ettiradi² deb yozilgan.

Klassik adabiy arab tili. Klassik arab tili Islom dini paydo bo‘lishi bilan uzviy bog‘liq. VII–X asrlarda Qur‘on tili asosida shakllanib, grammatikasi, fonetikasi va leksikasi qat‘iy tartibga solingan. Shuning uchun ham bu davr arab adabiyotining “oltin davri” hisoblanadi deyishadi. Qur‘on, hadis, tarixiy asarlar, falsafa, tibbiyot, mantiq va adabiyotda klassik arab tili keng qo‘llanilgan. Aynan shu davr tili hozirgi adabiy arab tilining negizini yaratdi^{1,3}.

Zamonaviy adabiy arab tili. XIX asr oxiridan boshlab arab tilining zamonaviy shakli shakllandi. U klassik arab tili asosida, ammo zamon talablari asosida yangilangan bo‘lib, yangi terminlar, texnik atamalar va uslublarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda bu til barcha arab mamlakatlarida rasmiy til, ta‘lim tili va kommunikatsiya vositasi sifatida qo‘llanadi. Shuningdek, jurnalistika, fan, texnologiya, siyosat va ommaviy axborot vositalarida keng ishlatiladi⁴.

Arab tilshunosligining shakllanish sabablari. Arablar boshqa fanlar qatorida tilshunoslik bilan ham qadimdan shug‘ullanganlar. Tilshunoslikning shakllanishiga olib kelgan asosiy sabablar quyidagilar:

1. Diniy ehtiyoj. Qur‘onning to‘g‘ri o‘qilishi va talqin qilinishi zarurati tilshunoslikni rivojlantirdi³.
2. Lahja va shevalarning xilma-xilligi. Arab qabilalari orasidagi fonetik va grammatik farqlar diniy matnlarning noto‘g‘ri tushunilish xavfini tug‘dirgan⁵.

3. Islom dunyosining kengayishi. Turli xalqlar bilan madaniy va ilmiy aloqalarning kuchayishi natijasida arab tilining grammatikasi va lugʻatlari tizimlashtirildi ^{2,4}.

Shunday qilib, arab tilshunosligi Qurʼonni toʻgʻri oʻqish, tilni standartlashtirish va madaniy-ilmiy aloqalarni rivojlantirish maqsadlariga xizmat qilgan fan sifatida shakllandi.

Xulosa oʻrnida aytish joizki, Arab tilshunosligi diniy, madaniy va ilmiy ehtiyojlar natijasida shakllanib, tilni standartlashtirish va rivojlantirishda muhim rol oʻynadi. Bugungi kunda arab tilshunosligi nafaqat tarixiy manbalarni oʻrganishda, balki zamonaviy ilmiy izlanishlar, tarjima ishlari va xalqaro diplomatiyada ham katta ahamiyatga ega. Arab tilini chuqur oʻrganish zamonaviy ilm-fan, madaniyat va xalqaro muloqot taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanov, M. Arab tili: Oʻquv qoʻllanma. — Toshkent: Global Books, 2019. — 360 b.
2. Usmonov, S. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent: Oʻqituvchi nashriyoti, 1972. — 208 b.
3. Versteegh, K. The Arabic Language. — Edinburgh University Press, 1997.
4. Owens, J. A Linguistic History of Arabic. — Oxford University Press, 2006.
5. Al-Jallad, A. The Earliest Stages of Arabic and Its Linguistic Context. — Brill, 2017.